



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

MATLUBA SHODIYEVA

*Qashqadaryo viloyat XTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD), dotsent*

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYANING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda motivatsiyaning ahamiyati keng yoritilgan. Maqolada ehtiyoj va motivlar o'qituvchining shaxsiy va professional o'zini o'zi rivojlantirish jarayonining asosi sifatida tadqiq qilinadi. Shuningdek, akmeologik yondashuv asosida o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini isloh qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, an'anaviy, masofaviy, onlayn, dual ta'lim shakllari, rasmiy, norasmiy, informal o'qitish texnologiyalari.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль мотивации в непрерывном профессиональном развитии учителей начальных классов на основе акмеологического подхода. В статье исследуются потребности и мотивы педагога как основа процесса личностного и профессионального саморазвития. Также разработаны предложения по реформированию процесса непрерывного профессионального развития педагогов на основе акмеологического подхода.

Ключевые слова: непрерывное повышение квалификации учителей, традиционные, дистанционные, онлайн, дуальные формы обучения, формальные, неформальные, информационные технологии обучения.

Annotation. This article discusses the role of motivation in the continuous professional development of primary school teachers based on the acmeological

approach. The article explores the needs and motives of the teacher as a basis for the process of personal and professional self-development. Proposals for reforming the process of continuous professional development of teachers based on the acmeological approach have also been developed.

Keywords: continuous professional development of teachers, traditional, distance, online, dual forms of education, formal, informal, informational teaching technologies.

Jahonda yangi ijtimoiy voqelik sharoitida ta'lim mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi uchun muhim manba bo'lib qolmoqda. Yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, ta'lim mazmunini yangilash, shaxs, jamiyat va davlatning ta'limga bo'lgan ehtiyojini o'zgartirish jarayonida kattalar ta'limi uchun ijtimoiy buyurtma shakllantirilib, u innovatsion kasbiy faoliyatga qodir, zarur metodik madaniyat darajasiga ega, yangi avlodga ta'lim beruvchi o'qituvchilarga qo'yiladigan talablarda ifodalanadi. Zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan bu o'zgarishlar o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishda yangicha yondashuvlar paydo bo'lishini belgilaydi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda yuksak bilimli, yetuk professional kadrlarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish, kasbiy rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Ushbu mexanizmlardan biri — o'qituvchi-pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish va o'zini o'zi rivojlantirishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish, shuningdek, mazkur jarayonda ehtiyojlarga asoslangan, individual, differensial, akmeologik yondashuv tamoyillarining qo'llanilishi hisoblanadi. Shu bois, axborotlashgan globallasuv davrida kattalar ta'limini tashkil etishning rivojlantiruvchi texnologiyalarini ishlab chiqishda nafaqat andragogik, balki akmeologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida akmeologik yondashuv – kattalar ta'limi mazmuni, ta'lim texnologiyalari, katta yoshdagilarni o'qitishda funktsionallikdan rivojlanishga o'tish, o'qituvchining ichki potensialini rivojlantirish, o'zini-o'zi anglash va boshqarish, faollashtirish, rivojlantirish imkoniyatlari orqali uzluksiz kasbiy rivojlantirish sifatini salmoqli oshishiga hissa qo'shadi.

Akmeologik yondashuvda eng yuqori kasbiy malakalar va natijalarga erishish muammolari tadqiq qilinadi. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida akmeologik yondashuvning mohiyati kasbiy motivatsiyani oshirish, ijodiy potensialni rag'batlantirish, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash va unumli foydalanish, o'zini-o'zi rivojlantirishga intilish, ta'lim va tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, mustaqil fikrlash va izlanish, ijodiy tafakkur qilish, tadqiqotchilik, modellashtirish, konstruksiyalash, intellektual, hissiy, irodaviy va amaliy o'zini-o'zi uzluksiz takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish bilan belgilanadi.

Turli davrlarda olimlar tomonidan o'qituvchilarni o'z-o'zini o'qitishga motivatsion yondashuvni rivojlantirish muammosi batafsil muhokama qilingan.

Jumladan, T.T.Shaymardonov uzluksiz ravishda o‘z-o‘zini mustaqil kasbiy rivojlantirib borishda motivatsiyaning qaror topishi [], A.V.Jarinov o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun motivatsiyani oshirish [], S.V.Bajanova oliy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyati uchun motivatsiyani rivojlantirishning akmeologik omillari [110], V.E.Arutyunyan malaka oshirish tizimida o‘qituvchining kasbiy rivojlanishining motivatsiyasi xususiyatlari [105], R.J.Wlodkowski kattalarning motivatsiyasini oshirishga doir keng qamrovli texnologiyalar yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

T.T.Shaymardonovning fikriga ko‘ra, “pedagogning kasbiy kompetentligi va mahoratining rivojlanishida ma’lum fan asoslari sohasida unda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarning, ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasining shakllanganligi hamda uzluksiz ravishda o‘z-o‘zini mustaqil kasbiy rivojlantirib borish motivatsiyasining qaror topganligi ham muhim omillardan sanaladi” [291; 18-b].

A.V.Jarinov akmeologik monitoring tizimida shaxsning subyektivligini rivojlantirish yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida akmeologik monitoring quyidagi funksiyalarni amalga oshirishga imkon berishini aniqladi: diagnostika (individual xususiyatlarning rivojlanish darajasini aniqlash), taxminiy (guruh meyorlari bilan xususiyatlarni individual taqqoslash), refleksli (adekvat aks ettiruvchi ideal, obyektiv individual xususiyatlar va o‘z-o‘zini imidjini yaratish), fikr-mulohazalar (monitoring ishtirokchisining shaxsiy va kasbiy rivojlanish xususiyatlari haqidagi eng to‘liq ma’lumotni olish), rag‘batlantirish (o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun motivatsiyani oshirish), prognostik (individual rivojlanish rejasini yaratish), ishlab chiqish (akmeologik texnologiyalarni qo‘llash), profilaktika (ishtirokchining shaxsiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi sharoit va omillarni aniqlash va oldini olish yuzasidan monitoring), autopsixologik (avtopsixologik rivojlanish kompetensiyasi) [149].

Motivatsion yondashuv – o‘z-o‘zini anglash, o‘zgarish zarurligini anglash va o‘zini o‘zi rivojlantirish uchun qaror qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchilarning o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirishi uchun o‘qituvchiga xos bo‘lgan akmeologik pozitsiyaning mavjudligi (uning shaxsiy faoliyati), moslashuvchanlik (atrofdagi voqelik shartlaridan shaxsiy rivojlanish uchun foydalanish qobiliyati), jamiyatda o‘z salohiyatini amalga oshirish istagi, o‘zini anglashi va shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish orqali o‘z kasbiy faoliyatini yanada takomillashtirishga tayyorligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirish muammosining tadqiqotchilari (V.I.Andreyev, L.N.Kulikova va boshqalar) o‘z-o‘zini rivojlantirishning o‘sib borayotgan shaxsning shaxsiy shakllanishining boshqa jarayonlari va hodisalari bilan o‘zaro bog‘liqligini qayd etishadi: o‘zini o‘zi bilish, o‘zini o‘zi tartibga solish, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘zini o‘zi anglash va boshqalar. Shu bilan birga, bu jarayonlarning har biri mustaqil va bir butun sifatida insonning o‘zini rivojlantirish jarayonining tarkibiy qismlari sifatida qarash mumkin.

V.I.Andreyev ta’kidlashicha, “o‘zlik” jarayonlari o‘z-o‘zini anglash, o‘zini kuzatish, o‘zini tahlil qilish va boshqalardan iborat [235]. Ammo, bu vaziyatni tahlil qilib, ularning ko‘pchiligi boshqa jarayonlarning tarkibiy elementlari, degan xulosaga

keladi va “o‘zini o‘zi bilish”ning eng muhim va tizimli elementlari sifatida quyidagilarni ajratadi: o‘zini o‘zi bilish, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini takomillashtirish. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, kasbiy o‘z-o‘zini anglashning quyidagi to‘rt turi mavjud [226]:

1) hozirgi “Men” – o‘qituvchining ayni paytda o‘zini qanday ko‘rishi va baholashi;

2) retrospektiv “Men” – o‘qituvchi o‘zining boshlang‘ich ish davri bilan o‘zini qiyoslashi va baholashi;

3) ideal “Men” – o‘qituvchi o‘zining qanday bo‘lishini xohlaydi;

4) refleksiv “Men” – o‘qituvchining hamkasblari, maktab rahbarlari va o‘qituvchilarning unga baho berishi.

O‘qituvchining o‘qitish va kasbiy rivojlanish jarayonidagi butun faoliyati yo‘nalishi, o‘z shaxsi va faoliyatini anglashi, o‘zining refleksiyasiga qaratilgan bo‘lishi lozim. Chunki pedagogik mehnat tahlil va nazoratsiz rivojlanmaydi. O‘z faoliyatini muntazam tahlil qilish va boshqalar bilan taqqoslash ijob va tashabbusni rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Ehtiyoj va motivlar o‘qituvchining shaxsiy va professional o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayonining asosi hisoblanadi. Ehtiyojlar qoniqmaslik hissi bilan bog‘liq. O‘zini namoyon qilish ehtiyojlari eng yuqori darajadagi ehtiyojlar bo‘lib, bu ehtiyojlar rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirish zarurati bilan belgilanadi va ularni qondirish shaxsiy hamda kasbiy o‘shishga olib keladi. Ko‘pincha ehtiyojlar ta‘lim tizimining rivojlanish darajasi, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari bilan bog‘liq. Biroq, ehtiyojlar aniq maqsadli xarakterga ega emas va xatti -harakatdagi bu vazifani faoliyat motivlari bajaradi. Har qanday harakat faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj asosida rivojlanadi. O‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj inson tabiatiga xosdir, u odamlarning sog‘lom ildiz otishi bilan bog‘liq bo‘lib, uning evolyutsion jarayonda rivojlangan ehtiyoji va rivojlanish qobiliyati bilan bog‘liq [187; 38-b].

O‘qituvchining o‘zini o‘zi rivojlantirishi motivatsiyaga va o‘zini o‘zi rivojlantirishni amalga oshirish jarayoniga asoslanadi. Motivlar inson faoliyatining turtki sifatida shaxsning xulq-atvorini belgilaydigan ichki omillardir. Boshqacha qilib aytganda, motivlar ehtiyojlar bilan belgilanadi va insonni xatti-harakatga undaydi. Motivlar – o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonining muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. O‘z-o‘zini rivojlantirishning motivatsiyasi odamni o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini ro‘yobga chiqarishga, o‘z-o‘zini rivojlantirishning dastlabki intellektual bilimlarini to‘plash, faoliyatning maqsadli shakllanishiga olib keladi.

Shunday qilib, shaxsning shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning motivatsion bosqichi o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun hal qiluvchi bo‘lgan ehtiyojlar, qadriyatlar va motivlarni o‘z ichiga oladi: subyektning o‘zini anglashi, o‘zgarish zarurligini anglash, o‘zini o‘zgartirish motivatsiyasi, o‘zini o‘zgartirish uchun qaror qabul qilish, shaxs va professional sifatida o‘zini rivojlantirish.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini isloh qilish bo‘yicha quyidagilar taklif etiladi: o‘qituvchilarni faoliyat olib borayotgan maktablarining rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqib, ularning kasbiy rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojlari asosida maqsadli va muammoli



kurslarning dasturlarini ishlab chiqish; uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida o'quvchilarning individual tipologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, bilim o'zlashtirishga oid motivatsiyasini uyg'otish, o'quv faoliyati va bilish darajasini rivojlantirishga doir kompetentligini takomillashtirishga yo'naltirilgan akmemashg'ulotlarni tashkil etish; o'qitish jarayonini yangi avlod standarti talablariga muvofiq tashkil etishini ta'minlashga doir psixologik treninglar o'tkazish; xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan tadqiqot talablari asosida mantiqiy topshiriqlar ishlab chiqishga mo'ljallangan amaliy o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish; pedagogik amaliyot va o'qish kombinatsiyasiga asoslangan texnologiyalarni takomillashtirish.

Xulosa shuki, o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish ularning o'z kasbiy tajribalarini tahlil qilish va baholash, shuningdek, o'zini o'zi shaxsiy rivojlantirish ehtiyojlarini faollashtirish va qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini tashkil etishda o'qituvchilarning shaxs sifatida umumiy rivojlanishini, ularning pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish faoliyati bo'yicha tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Wlodkowski, R. J. (2008). Enhancing adult motivation to learn: A comprehensive guide for teaching all adults (3rd ed.). San Francisco: Jossey-Bass.

2. Арутюнян В.Э. Особенности мотивации профессионального развития педагога в системе повышения квалификации: диссертация кандидата психологических наук: 19.00.07 / Арутюнян Виктория Эсаиновна; [Место защиты: Юж. федер. ун-т].- Ростов-на-Дону, 2012. – 196 с.: ил. РГБ ОД, 61 13-19/25.

3. Бажанова С.В. Акмеологические факторы развития мотивации профессионально-педагогической деятельности преподавателей высшей школы. – Ульяновск. 2004. – с 28.

4. Жаринов А.В. Развитие субъектности личности в системе акмеологического мониторинга: диссертация кандидат психологических наук. – М.: 2004. – с 219.

5. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития / В.И.Андреев. –3-е изд. – Казань: Центр инновационных технологий, 2012. – 608 с.

6. Шаймардонов Т. Педагог кадрлар малакасини ошириши ва касбий фаолияти мониторингини ташкил этишининг электрон тизими: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори дисс. (PhD). –Т.: 2017. – 153 б.